

TOG'JAMBIL (THYMUS SERPYLLUM L.) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK,
FARMAKOLOGIK VA XO'JALIK AHAMIYATI

Aysanem Jabbarbergenova

*Tashkilot: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti. Biologiya fakulteti.
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash mutaxassisligi 1-kurs magistranti
@AysanemJabbarbergenova569gmail.com*

Annotatsiya / Abstract: *Ushbu maqolada Thymus serpyllum L. (tog'jambil) o'simligining morfologik, bioekologik, kimyoviy tarkibi, farmakologik xususiyatlari va iqtisodiy ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu turning tabiiy resurslarini saqlash, yetishtirish va farmatsevtika sanoatida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tog'jambilning efir moylari, flavonoidlar, taninlar va boshqa biologik faol birikmalar inson salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekani isbotlangan.*

This article discusses the morphological, bioecological, chemical composition, pharmacological properties, and economic importance of Thymus serpyllum L. The results are aimed at preserving and cultivating the plant's natural resources and determining its potential for pharmaceutical use. The essential oils, flavonoids, tannins, and other biologically active compounds of wild thyme are of great importance for human health.

Kalit so'zlar / Keywords: *Thymus serpyllum L., dorivor o'simliklar, efir moyi, bioekologiya, farmakologiya, fitoterapiya.*

Thymus serpyllum L., medicinal plants, essential oil, bioecology, pharmacology, phytotherapy.

1. Kirish / Introduction

So'nggi yillarda dorivor o'simliklarni o'rganish, ularning bioaktiv moddalari asosida yangi dori vositalarini yaratish yo'nalishida dunyo miqyosida keng ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Thymus serpyllum L. — Lamiaceae oilasiga mansub, keng tarqalgan, ko'p yillik, yuqori biologik faollikka ega o'simliklardan biridir. U Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yevropa, Rossiyaning janubiy hududlari va O'zbekiston tog' oldi mintaqalarida uchraydi. U xalq orasida jamil, choy o't, timyan kabi nomlar bilan ham tanilgan. O'simlik xalq tabobatida qadimdan yo'tal, shamollash, ovqat hazm qilish buzlishlari va asab tizimi kasilliklarini davolashda ishlatilgan.

2. Materiallar va usullar / Materials and Methods

Tadqiqot materiallari sifatida O'zbekistonning tog' oldi hududlarida yig'ilgan Thymus serpyllum L. namunalaridan foydalanildi. Efir moyi GHS (gaz xromatografiyasi) yordamida tahlil qilindi, asosiy komponentlar timol, karvakrol va borneol ekanligi aniqlangan.

Botanik tavsifi:

Tog'jambil – past bo'yli, ko'p yillik, butasimon o'simlik.

Poyasi: 10-40 sm gacha, to'siq shaklida yotib o'sadi, shoxlangan.

Bargi: mayda, tuxumsimon yoki cho'ziq, silliq, qirralli, yuzasida efir moyi bezchalari mavjud.

Guli: pushti yoki binafsha rangda, xushbo'y, mayda, to'pgul holida joylashgan.

Mevasi: To'rtta urug'chali yong'oqcha

Gullash davri: May-avgust oylarida

Mevalash davri: iyun-sentabr oylarida



Tarqalishi va bioekologik xossalari:

Tog'jambil asosan tog' etaklari, quruq adirlar, toshloqyonbag'irlar va o'rmon chekkalarida o'sadi. O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li tumanlarida keng tarqalgan.

Nursevar o'simlik bo'lib soyali joylarda sust o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli, ildiz tizimi chuqur. Tuproq tanlamaydi, lekin eng yaxshi o'sishi qumli yoki toshloq tuproqlarda kuzatiladi. Bu xususiyatlar uni ekologik jihatdan kserofit o'simliklar guruhiga kiritadi.

3. Natijalar / Results

O'simlikning morfologik tahlili shuni ko'rsatdiki, *Thymus serpyllum* ko'p yillik butasimon o't bo'lib, poyasi tarmoqlangan, barglari mayda, gullari binafsha rangda. Efir moyining miqdori 0,8–2,5% gacha bo'lib, asosiy komponentlari timol (40–50%), karvakrol (15–20%), borneol, linalool, pinen va sitraldir.

Farmakologik tahlillar uning antibakterial va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega ekanini ko'rsatdi.

Kimyoviy tarkibi.

Tog'jambilning dorivor qiymati uning kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi. Asosiy faol moddalar:

Efir moyi – tarkibida timol va karvakrol mavjud;

Flavanoidlar (luteolin, apigenin);

Tanninlar (bog'lovchi moddalar);

Organik kislotalar – ursol, kofe va xlorogen kislotalar;

Vitaminlar – C, E, PP;

Mneral moddalari – kaliy, temir, manganets.

Ayniqsa, timol moddasining yuqori miqdori o'simlikka antiseptic va yallig'lanishga qarshi xususiyat beradi.

Dorivor ahamiyati.

Tog'jambil xalq tabobati va farmatseptikada keng qo'llaniladi.

Asosiy shifobaxsh ta'sirlari:

Yo'tal va shamollashga qarshi(balg'am ko'chiruvchi, yengil antiseptik)

Asab tizimini tinchlantiradi, uyqusizlikni kamaytiradi.

Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi, hazmni osonlashtiradi.

Og'riqni kamaytiruvchi va antimikrob ta'sirga ega.

Teri yaralarini bitiruvchi va dezinfeksiyalovchi sifatida tashqi tomondan ishlatiladi.

Tayyorlanadigan dori shakllari:

Damlamalar (choy, infuziya)

Nastoykalar (spirtli eritmalar)

Efir moyi (massaj va ingalyatsiya uchun)

Ekstrakt va siroplar (yo'talga qarshi)

4. Muhokama / Discussion

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Thymus serpyllum tabiiy sharoitda keng tarqalgan, ekologik jihatdan bardoshli va yuqori biofaollikka ega o'simlik hisoblanadi.

Uning efir moyi farmatsevtika, kosmetologiya va oziq-ovqat sanoatida katta ahamiyatga ega. Resurslardan oqilona foydalanish va sun'iy ekish texnologiyalarini ishlab chiqish dorivor turlarni saqlashda muhimdir.

Iqtisodiy va ekologik ahamiyati.

Tog'jambil asalarichilikda nektar manbai sifatida ham qimmatli o'simlik.

Landshaftni barqarorlashtiradi, tuproq eroziyasining oldini oladi. Kosmetika sanoatida tabiiy xushbo'y component sifatida ishlatiladi. Ekologik jihatdan foydali – karbonatli tuproqlarni to'yintiradi va tuproq mikloflorasini yaxshilaydi.

Tog'jambilning madaniylashtirilishi

Yovvoyi holda o'suvchi tog'jambilning genetik zaxirasini saqlash maqsadida uni madaniy holda yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Yetishtirishda urug'ar bahorda yoki kuzda ekiladi, namlik o'rtacha bo'lgan, quyoshli joylar tanlanadi.

O'simlik 2-3 yildan boshlab to'liq hosil beradi.

5. Xulosa / Conclusion

1. Thymus serpyllum L. yuqori biofaollikka ega dorivor o'simlikdir.

2. Uning efir moyi va flavonoidlari farmakologik ahamiyatga ega.

3. O'simlik resurslarini muhofaza qilish va yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

4. Farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida keng foydalanish istiqbollari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

- 1.Karimov M. Dorivor o'simliklar florasi, Toshkent, 2019
2. Ahmedov T. O'simlikshunoslik va bioekologiya asoslari, Toshkent, 2020
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. Vol.4.World Health Organization, 2019.
- 4."Plants of Central Asia: Plant Collection and Storage", Springer,2021.
5. Uzakova N. A. (2021). Tog'jambil (*Thymus serpyllum* L.) efir moyining kimyoviy tahlili va farmakologik baholanishi. O'zbekiston biologiya jurnali, №4.
- 6.O'zbekiston FA Botanika instituti ma'lumotlari.